

O'ZBEKISTONDA EKSPORT QILUVCHI TADBIRKORLIK SUB'EKTLARNING RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI

Inoyatov Abdullo Xikmatilla o'g'li

Vatan Universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanish holati va hozirgi tendensiyalari tahlil qilingan. Mamlakatda eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning amaliy natijalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, eksport faoliyatini kengaytirish yo'lidagi mavjud muammolar aniqlanib, milliy mahsulotlarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport, tadbirkorlik sub'ektlari, eksport salohiyati, tashqi savdo, raqobatbardoshlik, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhiti, iqtisodiy o'sish.

Kirish

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida tashqi savdo faoliyati mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, eksport faoliyatining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ko'plab davlatlar o'z iqtisodiy siyosatida eksportni rag'batlantirish hamda eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqda¹.

So'nggi yillarda o'zbekiston respublikasida ham eksport faoliyatini rivojlantirish, eksport qiluvchi korxonalar sonini ko'paytirish hamda mahalliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan qator institutsional va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatda eksport faoliyatini qo'llab-

¹ Krugman p., obstfeld m., melitz m. International economics: theory and policy. pearson education, 2018.

quvvatlash, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, eksport jarayonlarini soddalashtirish hamda eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlariga moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish bo'yicha qator davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi². Natijada, mamlakatda eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlari soni hamda eksport hajmi yildan-yilga ortib bormoqda.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda o'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi hamda eksport hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, 2023-yilda mamlakat eksport hajmi 23 mlrd aqsh dollaridan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada yuqori hisoblanadi³. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportdagi ulushi ham ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda eksportni rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosatining samarali amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ham eksport faoliyatining yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Xususan, elektron tijorat platformalari, raqamli savdo maydonchalari hamda xalqaro onlayn savdo tizimlari orqali mahalliy tadbirkorlarning xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Bu esa eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining diversifikatsiyalashuviga hamda eksport geografiyasining kengayishiga xizmat qilmoqda⁴.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mazkur bo'limda o'zbekistonda eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanish holati, eksport hajmining dinamikasi hamda eksport faoliyatida tadbirkorlik sub'ektlarining o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatda eksport faoliyatining rivojlanish tendensiyalari hamda eksport qiluvchi korxonalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari statistik ma'lumotlar asosida o'rganiladi.

O'zbekiston eksport hajmining dinamikasi tahlili. So'nggi yillarda o'zbekiston respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatning tashqi savdo faoliyati sezilarli darajada faollashdi. Xususan, eksport hajmini oshirish, eksport


² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2024-y., 06/24/228/1091-son

³ O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi. Tashqi savdo statistikasi - www.stat.uz

⁴ UNCTAD. digital economy report. - geneva, 2023.

qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash hamda milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan mamlakatda eksport faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan qator iqtisodiy mexanizmlar joriy etilib, eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda⁵.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'ngi yillarda o'zbekiston respublikasining eksport hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, mamlakat eksport hajmi 2020-yilda 15,1 mlrd aqsh dollarini tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda ushbu ko'rsatkich izchil o'sib bordi.



5-rasm. O'zbekiston eksport hajmining o'sish dinamikasi (2020-2024)⁶

Yuqoridagi ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020-2024-yillar davomida o'zbekiston eksport hajmi sezilarli darajada oshgan. Xususan, ushbu davr mobaynida eksport hajmi qariyb 9 mlrd aqsh dollariga ortgan bo'lib, bu mamlakat eksport salohiyatining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Bunda ayniqsa sanoat mahsulotlari, rangli metallar, kimyo sanoati mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda xizmatlar eksportining o'sishi muhim rol o'ynagan.

Eksport hajmining oshishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish hajmining ortishi, eksport infratuzilmasining rivojlanishi, logistika tizimining

⁵ O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2024-yil 27-dekabrda qabul qilingan 228-son farmoni

⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

takomillashuvi hamda eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaytirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda⁷.

Eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlari sonining o'sishi. O'zbekistonda eksport faoliyatining rivojlanishida tadbirkorlik sub'ektlari muhim rol o'ynaydi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mamlakat eksportining muhim qismini shakllantirib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatda eksport qiluvchi korxonalar soni ham izchil ortib bormoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda mamlakatda 5 mingga yaqin eksport qiluvchi korxonalar faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ularning soni 7 mingdan ortiqni tashkil etdi.

4-jadval

Eksport qiluvchi korxonalar soni⁸

YIL	EKSPORT QILUVCHI KORXONALAR SONI
2017	5 000
2019	6 000
2021	6 500
2023	7 200

Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda tadbirkorlik muhitining yaxshilanib borayotganini hamda eksport faoliyatiga jalb etilgan korxonalar sonining ortib borayotganini ko'rsatadi. Bunga eksportni rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosati, jumladan eksport subsidiyalari, kredit imtiyozlari hamda eksportni sug'urtalash mexanizmlarining joriy etilishi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi - www.stat.uz

⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Kichik biznesning eksportdagi ulushi. O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda kichik biznesning eksportdagi ulushi ham izchil ortib bormoqda (5-jadval).

5-jadval


Kichik biznes eksportining ulushi

YIL	ULUSHI (%)
2021	27
2022	29
2023	31

Mazkur ko‘rsatkichlar kichik biznes sub’ektlarining xalqaro bozorlarda faol ishtirok etayotganini hamda eksport faoliyatida ularning roli ortib borayotganini ko‘rsatadi⁹.

Eksport tarkibining tahlili. O‘zbekiston eksporti tarkibiy jihatdan turli sohalarni qamrab oladi. So‘nggi yillarda sanoat mahsulotlari eksporti sezilarli darajada oshib, eksport tarkibida yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda (6-rasm).

6-rasm. O‘zbekiston eksport tarkibi¹⁰



⁹ World Bank. Uzbekistan Economic Update.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


Mazkur ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakat eksportining asosiy qismini sanoat mahsulotlari tashkil etmoqda. Shu bilan birga, xizmatlar eksportining ham ulushi ortib bormoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda o'zbekistonda eksport faoliyati sezilarli darajada rivojlanib, eksport hajmi hamda eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlari soni izchil ortib bormoqda. Bunda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan eksportni qo'llab-quvvatlash siyosati, ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda raqamli texnologiyalar va elektron savdo platformalarining rivojlanishi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hududlar kesimida eksport faoliyati tahlili. O'zbekiston respublikasida eksport faoliyatining rivojlanishi hududlar iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Hududlar kesimida eksport hajmini tahlil qilish mamlakat eksport salohiyatini hududiy jihatdan baholash, eksport imkoniyatlari yuqori bo'lgan hududlarni aniqlash hamda hududlararo iqtisodiy rivojlanishdagi tafovutlarni o'rganish imkonini beradi¹¹.

7-rasm. O'zbekiston hududlari kesimida eksport hajmi (2023-yil)¹²

So'nggi yillarda o'zbekiston hududlarida eksport faoliyati sezilarli darajada rivojlanib, viloyatlarda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib bormoqda. Bunda ayniqsa Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoiy viloyati hamda Andijon



¹¹ Porter M. competitive advantage of nations. - new york: free press, 2019.

¹² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

viloyati mamlakat eksportida yetakchi hududlar sifatida ajralib turadi. Ushbu hududlarda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanganligi, logistika infratuzilmasining nisbatan yaxshi shakllanganligi hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar sonining ko'pligi eksport hajmining yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda (7-rasm).

Ushbu ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakat eksportining katta qismi sanoat salohiyati yuqori bo'lgan hududlarga to'g'ri keladi. Xususan, Toshkent shahri mamlakat eksportining muhim qismini tashkil etib, bu yerda mashinasozlik, kimyo sanoati, elektrotexnika hamda xizmatlar eksporti keng rivojlangan. Shu bilan birga, Navoiy viloyati rangli metallar va konchilik sanoati mahsulotlari eksporti hisobiga yuqori eksport ko'rsatkichlariga ega bo'lmoqda.

Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida esa asosan to'qimachilik sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda yengil sanoat mahsulotlari eksporti rivojlangan. Surxondaryo, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat sanoati mahsulotlari eksporti muhim o'rin tutadi¹³.

Hududlar kesimida eksport faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ayrim hududlarda eksport salohiyati yetarli darajada foydalanilmayapti. Jumladan, Sirdaryo, Jizzax hamda Xorazm viloyatlarida eksport hajmi nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa ushbu hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda tadbirkorlik sub'ektlarini eksport faoliyatiga jalb etish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, hududlarda erkin iqtisodiy zonalar hamda sanoat zonalarining tashkil etilishi eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Navoiy, Angren, Jizzax hamda Urgut erkin iqtisodiy zonalarida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib, ushbu hududlarning eksport salohiyati sezilarli darajada oshgan¹⁴.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. hududlar kesimida tashqi savdo statistikasi - www.stat.uz

¹⁴ World bank. Investment Report. UNCTAD. World investment report.

Umuman olganda, hududlar kesimida eksport faoliyatining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuviga, hududiy iqtisodiy rivojlanishning muvozanatlashuviga hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mullajanov I.T. “Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati rivojlantirish” Innovative Development in Educational Activities VOLUME 3 Social Sciences & Humanities March, 2024
2. Mamasoatov D.R. “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish bo‘yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanishni takomillashtirish”. Iqtisodiyot va ta’lim 24 (5), 394-399 2023 y.
3. Mamasoatov D.R. Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirish samaradorligiga tasir etuvchi omillarni aniqlash istiqbollari. Science and innovative development jurnali 5 (3), 122-133 2022 y.
4. Abdurahmonov Q.X. Milliy iqtisodiyot. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
5. Qosimov A.A. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - Toshkent, 2018.
6. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2017.
7. Yusupov N. Raqamli iqtisodiyot asoslari. - Toshkent, 2021.
8. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. - W.W. Norton & Company, 2016.
9. Turban E. Electronic Commerce: A Managerial Perspective. - Springer, 2017.
10. Tapscott D. The Digital Economy. - McGraw-Hill, 2014.
11. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. - World Economic Forum, 2016.
12. Varian H. Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy. - Harvard Business School Press, 2019.
13. Evans D., Schmalensee R. Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms. - Harvard Business Review Press, 2017.